

## INTERNET VA UNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

**Mirzalimova Aziza Ilxomjon qizi**

*Guliston davlat universitet Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti Psixologiya:  
Amaliy psixologiya yo'nalishi 4-bosqich 2-20-guruhi talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolamizda, insoniyatning ajralmas bir qismiga aylanib borayotgan internetning yoshlarda axborot iste'moli madaniyatining sustligi, turli xabarlar oqimidan kerakligini ajratib olishda bilim, malaka va ko'nikmaning yetishmasligi ba'zilarining g'arazli kimsa va oqimlar ta'siriga tushib qolishlariga, internet qaramligi kasalligiga yo'liqishlariga sabab bo'layotganligi, yoshlarning ko'p vaqtini inernetda o'tkazishlari global muammoga aylanganligi haqida aytib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Internet, internetning ta'siri, ijobiy, salbiy oqibatlar, virtual do'stlar, ijtimoiy tarmoqlar, aloqa, ijtimoiylashuv, zamonaviy yoshlar.*

## ИНТЕРНЕТ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ОБРАЗОВАНИИ МОЛОДЕЖИ

**Аннотация:** *В данной статье рассматривается медлительность культуры потребления информации среди молодежи Интернета, которая становится неотъемлемой частью человечества, недостаток знаний, умений и навыков выделения необходимого из потока различных сообщений, у некоторых людей. подпадают под влияние злонамеренных людей и течений, болезнь интернет-зависимости, было отмечено, что молодые люди проводят много времени в Интернете и что это стало глобальной проблемой.*

**Ключевые слова:** *Интернет, влияние Интернета, положительные, отрицательные последствия, виртуальные друзья, социальные сети, общение, социализация, современная молодежь.*

## THE INTERNET AND ITS IMPORTANCE IN YOUTH EDUCATION

**Abstract:** *In this article, the slowness of the culture of information consumption among young people of the Internet, which is becoming an integral part of humanity, the lack of knowledge, skills and skills in distinguishing what is necessary from the flow of various messages, some people fall under the influence of malicious people and currents, the disease of Internet addiction. it was mentioned that young people spend a lot of time on the Internet and that it has become a global problem.*

**Keywords:** *Internet, Internet influence, positive, negative consequences, virtual friends, social networks, communication, socialization, modern youth.*

## KIRISH

XXI asr – axborot texnologiyalari taraqqiyoti asri. Bugungi kun taraqqiyotini jahon axborot tarmog'i-internetsiz tasavvur qilish mushkul.

Ma'lumki, internet-axborot va hujjatlarning o'zaro almashinishini ta'minlaydigan kompyuter tarmoqlarini birlashtirgan xalqaro tizimdir.

Internet keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Uydan ko'chaga chiqmay turib global tarmoq orqali dunyo kutubxonalari bo'ylab sayr qilib, kurrai zaminning narigi chekkasida joylashgan oliy ta'lim muassasasining masofaviy (virtual) talabasi bo'lish, hatto elektron xizmatlarni (matnlarni tarjima qilish, video va audiomahsulotlarni tayyorlab berish, kitob va risolalarni sahifalash va hokazo) shartnoma orqali bajarish, pul ishlab topish mumkin. Xullas, internetning ijobiy jihatlari bisyor.

Ijtimoiy tarmoqlar yoki messenjerlarning qulayligi-chi? Onlayn konferensiyalar o'tkazish, onlayn malaka oshirish, yaqinlar va tanish-bilishlar bilan tez, arzon video yoki audiomuloqot qilish. Mana shu jihatlari bilan internet keyingi paytlarda jozibadorlikda televideniye, radio va boshqa axborot vositalarini ortda qoldirmoqda.

Lekin internet ko'plab foydali jihatlari bilan birga salbiy oqibatlarini ham namoyon qilmoqda. Aholida ayniqsa yoshlarda axborot iste'moli madaniyatining sustligi, turli xabarlar oqimidan kerakligini ajratib olishda bilim, malaka va ko'nikmaning yetishmasligi ba'zilarining g'arazli kimsa va oqimlar ta'siriga tushib qolishlariga, internet qaramligi kasalligiga yo'liqishlariga sabab bo'lmoqda. Xitoy Xalq Respublikasida internetga qaramlik kasallik sifatida e'tirof etilib, uni davolovchi maxsus shifoxonalar tashkil etilgani so'zimizning isbotidir.

Global tarmoq natijasida yuzaga kelgan eng katta muammo, bu, albatta, qaramlik, tobeklik kasalligidir. Yoshlarning ko'p vaqtini inernetda o'tkazishlari global muammoga aylanib ulgurgan. Bugun internet ayrim yoshlar uchun mashhur yozuvchi Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asari qahramoni Hoshimjon topib olgan sehrli qalpoqchadir.

Umuman, internetga qaramlikning eng og'ir jihati real olamni, insoniylik burchi va vazifalarini unutishdir. Inson haqiqiy hayotda yashashi, halol mehnat qilishi, ilm olishi, zimmasidagi vazifalarini sidqidildan bajarishi, elu yurtiga fidoyilik bilan xizmat qilishi, atrofdagilarga foyda keltirishi zarur.

Internetda ko'p vaqtini o'tkazadigan insonning ruhiyatida mavhumlik va o'z qobig'iga o'ralib olish holati kuzatiladi. Bu esa uni kelajakda "uchinchi kuchlar" tomonidan manqurtlashishi, zombilashtirilishi uchun zamiin yaratadi. Bugungi kunda buzg'unchi guruhlar yoshlar ongiga ta'sir qilishda asosan internetdan foydalanayotganlari bejiz emas.

Internetning yana bir salbiy jihati-kishilardagi xudbinlik, manmanlik, zamonaviy tilda ifoda etganda, egosentrizm illatining kuchayishiga sabab bo'lishidir.

### **INTERNET VA UNDA FOYDALANISH MADANIYATI**

Inernet bu – hozirgi zamon talabidagi yagona ommabop kompyuter tarmog'i hisoblanib, bizga barcha sohalarga oid noaniqlik ya'ni ongimizga mavhum bo'lgan tushunchalar haqida ochiq, oddiy va ravon ma'lumot beruvchi axborot manbaidir.

Tabiyki, hozrgi kunda ushbu omilga bo'lgan ehtiyojmandlar soni kundan kunga ortib bormoqda. Mazkur tarmoq butun dunyo miqyosida global tarmoqdir. Zero unda mavjud yangiliklardan xabardor etuvchi matinlar, tasvir hamda ovoz xizmatlari va bir qator imkoniyatlar barcha jabhada katta yengilliklarni yuzaga keltirayotgan bo'lsa-da, ammo ikkinchi tomondan insoniyatni beixtiyor vertual olamga jalb etib bormoqda. Ayniqsa bu ta'sir doirasidan o'smir yoshlar ham yo'q emas. Bu borada mutahasislarning so'zlari quydagi natijalarni isbotlamoqda:

internet tarmog'idagi ijobiylik insonning fan, soha va faoliyatiga bog'liq muhim aniq dalillarga ega bo'lishida har tomonlama qulayligi va tegishli vaqt miqdorining tejalishiga olib kelishi kundek ravshan, lekin qiziquvchanlik sababli Internet axborotlaridagi ortiqcha ma'lumotlarga haddan ziyod berilib ketishlaridir.

Izlanuvchanlik, fikriy rivojlanish, mushoxada, taxlil qilish qobilyati va xotiraning o'tkirlik darajasini susaytirishga sabab bo'lmoqda.

Ma'lumki, Internet vositasidan foydalanish hech kimga majburiy bo'lmagan va insonning o'z tafakkuridan kelib chiqqan qonun qoidalar asosida bo'lishi kerakligi hamda undagi me'yor talablari, ya'ni Internet tarmog'idan axborotlarni to'g'ri tanlash har jihatdan o'rinlidir. Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu tarmoq vositasining o'z ichiga qamrab olgan axborotlar miqyosi shu qadar keng va ko'p ekanligi gohida o'zimizga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni ajratib olishimizda ham qiyinchilik tug'dirmoqda.

Barchamzga ma'lumki, Internetda ishlashimiz uchun qidiruv tizimining o'rni beqiyos. O'zingizga kerakli barcha ma'lumotlarni shu kabi biron bir saytning "izlash" katakchasiga yozib, chiqarilgan ko'pgina ma'lumotlar ichidan o'zingizga keraklisini tanlab olaverasiz yoki ma'lum bir saytning manzili yodingizdan ko'tarildimi, yana o'sha qidiruv sistemalari yordamga keladigan saytga aloqador kalit so'zlarini terasiz va qarabsizki o'sha sayt qarshingizda namayon bo'ladi.

Internet tarmog'ida: Yahoo, Google, Ref.uz singari yana boshqa nomlar bilan ataluvchi qidiruv tizimlari mavjud. Yuqoridagi qidiruv dasturlari haqida batafsil va umumiy ta'rif berishda ularni biror bir tizim orqali masalan, Google tizimini tushuntirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu kompaniya Internetdagi yetakchi qidiruv tizimi hisoblanadi, dunyo bo'ylab tarmoq foydalanuvchilarning o'ntadan yettitasi u yoki bu ma'lumotlarni topish ilinjida aynan mana shu saytga murojat qilishadi. Tizim har kuni 50 mlionga yaqin so'rovlarni qabul qiladi, sakkiz milyardlab veb-sahifalarni indeksatsiya qiladi. U 101 tildagi axborotni izlab topishi mumkin. Keyingi yillarda butun dunyo internet foydalanuvchilari orasida keng ommalashib borayotgan Google tizimi 1998 – yil sentyabrda ishga tushgan. Hozirda bu kompaniyaning qidiruv tizimlaridan tashqari yana bir qator foydali va qulay xizmatlari mavjud va ular soni ortib bormoqda.

Darhaqiqat, hozirda nafaqat Internet tarmog'i vujudga kelganligi, bundan tashqari shu kabi jahonaro rivojlanib keayotgan turli – tuman axborot texnologiyalar yosh avlodga ijobiy ta'sir kuchini o'tkazayotganligini bir tomondan quvonarli bo'lsa –

da, ikkinchi tomondan ularni turli salbiy saboqlardan asrash maqsadida tarbiyaviy muhitni kuchaytirishga undaydi.

Bugungi kunda xarbiy hizmatchilar radio–televidenie, matbuot Internet kabi vositalar orqali rang barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda.

Jaxon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda xarbiylarimiz ongini o'rab–chirmab, uni o'qima, buni ko'rma deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan orab olish hech shubhasiz zamonning talabiga ham bizning ezgu maqsad – muddaolarimizga xam to'g'ri kelmaydi.

Nega deganda biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yganmiz va bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz.

Binobarin, biz davlatimiz kelajagi o'z qobig'imizga o'ralib qolgan holda emas, balki umumbashariy va demokratik qadriyatlarni chuqur o'zlashtirgan holda tasavvur etamiz. Biz istiqbolimizni taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish inson huquqi va erkinliklarini fikrlar rang – barangligini o'z hayotimizda yanada kengroq joriy qilishda ko'ramiz. Biz butun ma'rifatli xalqaro hamjamiyat bilan tinch – totuv, erkin va farovon hayot kechirish o'zaro manfaatli xamkorlik qilish tarafdorimiz.

Xozirgi zamon axborot tizimi uning, juda keng imkoniyatlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekistonda axborot olish, saqlash, foydalanish va tarqatishning umumiy manfaat va umumiy taraqqiyot nuqtai nazaridan boshqaruv mexanizmini yaratish, uning moxiyati va unsurlarini chuqur anglash zarur bo'lib qolmoqda. Ana shu hayotiy extiyojdan kelib chiqib axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimini yaratishning quydagi usullarini qo'llash madaniyatini zarur deb hisoblaymiz:

Birinchidan, sotsiologik yo'nalish. Bunda axborot olish va tarqatish jarayonida jamiyat taraqqiyotining axborotini ijtimoiy voqelik sifatidagi roldan kelib chiqib, jamiyatda shakillanayotgan ijtimoiy ong yo'nalishlari ijtimoiy tafakkur darajasi va uning oqimlarini o'rganishni yo'lga qo'yish kerak.

Aholi turli qatlamlari, qarashlari, kasbiy va boshqa ijtimoiy holatlari asosidagi fikrlash tarzini aniqlab borish zarur.

Ikkinchidan, statistik yo'nalish. Ko'p millatli mamlakatda, hususan, 130 dan ortiq millat va elat yashayotgan, 20 ga yaqin diniy konfessiyalar faoliyat ko'rsatayotgan O'zbekistonda millatlararo va dinlararo mojarolarni turli siyosiy manfaatlar va buzg'unchi g'oyalar tasirida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolar manbalarini o'rganib borish, bu borada aniq hisob – kitoblarga tahliliy yechimlarga ega bo'lish.

Uchinchidan, siyosiy konfliktologiya va siyosiy psixologiya. Axborot psixologik xavf avj olayotgan bir paytda, turli buzg'unchi g'oyalar inson ongi va tafakkuriga o'z ta'sirini o'tkazayotgan bir sharoitda siyosiy mojarolar kelib chiqish mumkin bo'lgan manbalarni o'rganish, omillarini aniqlash hamda siyosiy qarashlari, ruhiyati, ijtimoiy – siyosiy psixologik izchil ravishda o'rganib borilmog'i lozim.

To'rtinchidan, mantiqiy tizimiy va funktsional tahlil. Axborot tizimi, xususan, axborot psixologik ta'sir axborot siyosati tizimi va vositasining muxim qismi sifatida baxolashi lozim. Voqelikka ana shu tarzda yondashib, ilmiy – taxliliy nazariy va amaliy xulosalar chiqarish kerak. Tig'iz axborotlashgan jamiyatda axborot oqimi ta'sirida shakillanayotgan ijtimoiy fikr fan nuqtai nazaridan izchil o'rganilmog'i lozim.

Beshinchidan, axborot tizimida milliy istiqlol g'oyasining ustuvorligi. Har qanday fuqoro axborot bazasidan “maxsulot” tanlash jarayonida uning qalbida, ruxiyatida, kayfiyatida, fe'l atvorida, bularning barchasining oqibati sifatidagi hatti – xarakati va munosabatida mafkuraviy immunitet ustuvorligini ta'minlash. Albatta, O'zbekiston mustaqillikning 23yili mobaynida ommaviy axborot komunikatsiyasi soxasida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Eng avvalo har bir fuqaroning so'z va fikr erkinligi, axborot olish va tarqatish huquqi Konstitutsiya bilan kafolatlangan.

Ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi bir qator qonunlar yaratildi va amalda qo'llanilmoqda. Mustaqil nashrlar soni keskin ko'paydi. Bularning hammasi mamlakat ichki hayotida milliy axborot tizimining o'ziga xos taraqqiyotidan dalolat beradi.

Yana shuni takidlash lozimki, Internet vositalaridan o'rin olgan jamiki axborot va ma'lumotlarning hammasi ham real haqqoniy emasligi ayni paytda ayon bo'lmoqda.

### **MUHOKAMA**

Internetning yana bir salbiy jihati-kishilardagi xudbinlik, manmanlik, zamonaviy tilda ifoda etganda, egosentrizm illatining kuchayishiga sabab bo'lishidir. Bugungi dunyo yoshlari-son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Bugun internet madaniyati, virtual madaniyat, axborot madaniyati, ma'lumotlardan to'g'ri foydalanish madaniyati kabi tushunchalar hayotimizdan o'rin egalladi. Yoshlarda internet olamida o'z o'rnini to'g'ri belgilash va foydalanuvchilar bilan to'g'ri muomala qilish, virtual olamdagi axborotlarni to'g'ri tahlil qilish malakasini shakllantirish davr talabidir.

### **XULOSA**

XXI asrda ya'ni "AXBOROT TEXNOLOGIYALAR ASRI"da yashayapmiz degani, ijtimoiy tarmoqlardan xohlaganimizcha foydalanishimiz kerak degani emas. Har bir narsani chegarasi bo'lgani kabi internetdan foydalanishni ham chegarasi va qoidalari bor. Internetdan kamroq va foydali yo'llarda foydalanishni o'rganishimiz va kelajak avlodga o'rgatib borishimiz kerak. Bu bizning kelajagimiz uchun asosiy vazifamizdir. Albatta, hozirgi kunda hech kim yo'qki biror bir mobil aloqasi va internetdan xabarsiz bo'lsa, ayniqsa yoshlarda kattalarga nisbatan tez o'rganuvchan bo'lganligi uchun bu narsa ular orasida juda tez va keng yoyilib kelyapti. Shuning uchun, bizning kelajagimiz bo'lmish yosh avlodlarga ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilish jarayonida umuman o'z shaxsiy ma'lumotlari, uy telefoni raqami, manzili, shuningdek, ota-ona va yaqinlarining shaxsiy ma'lumotlarini berish mumkin emasligini tushuntirish kerak. «Virtual do'stlar»i orasida yomon niyatli kimsalarga duch kelish xavfi va ular bilan haqiqiy hayotda uchrashishlari, ishonuvchan odatlariga ko'ra begonalar bilan dildan suhbatlashishlari xavfini alohida ta'kidlash zarur. Bunday muloqotlar ko'pincha

kiberjinoatchilar ya'ni internet orqali jinoyat qiluvchilar uchun juda qulay sharoit ekanligini har bir o'smir bilmog'i lozim va yoshlarning internetdan foydalanishini qattiq nazorat qilish kerak. Internetga haddan ziyod bog'lanib qolish insonlarning ham tana sog'ligida, ham ruh sog'ligida bir qancha nuqsonlarning paydo bo'lishini inonatga olib, internetdan me'yorida foydalanishga amal qilish lozim. "So'nggi pushaymon o'zingga dushman" degan gap ham bejizga aytilmagan. Salbiy oqibatlar bilan kurashgandan ko'ra uni oldini olgan afzal.

#### REFERENCES:

1. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. 2022 №2.
2. Mirzayev Jamshid Turdaliyevich. Yoshlar ijtimoiy hulq-atvoriga internet muloqoti ta'sirining psixologik jihatlari mavzusida, Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) olish uchun yozilgan disertatsiyasi. 2023 y. 4-bet.
3. Мирзаев Джамшид Турдалиевич. «Психологические аспекты влияния интернет-общения на социальное поведение молодежи». «International Journal of Medicine and Psychology / Международный журнал медицины и психологии» включен в список ВАК с 04.02.2020г., РИНЦ (Elibrary.ru) и в Международную базу данных Agris., 2022 г. 127-133 ст
4. Bekmirov, T. (2022). Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари (Doctoral dissertation, Yangi O'zbekiston taraqqiyotida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalari Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari).
5. Akhmedov, B. A., Makhkamova, M. U., Aydarov, E. B., Rizayev, O. B. (2020). Trends in the use of the pedagogical cluster to improve the quality of information technology lessons. Экономика и социум, 12(79), 802-804
6. <https://religions.uz/uz/news/detail?id=343>
7. Zimbardo F., Leippe M. Ijtimoiy ta'sir. - Sankt-Peterburg: "Peter" nashriyoti, 2000, s
8. <https://m.aniq.uz/uz/yangiliklar/internet-va-uning-yoshlar-tarbiyasidagi-ahamiyati>